



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

2022 y. " 16 " iyul

N<sup>o</sup> 01-10/226

### O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil ikkinchi yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son Farmoni va "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videosektor yig'ilishlarida va hududlarga tashriflarida yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha Yoshlar ishlari agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tizimida 2022-yilning ikkinchi yarmida samarali va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida

#### B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil ikkinchi yarim yillik ish rejasini (keyingi o'rinlarda – ish reja) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ish rejada belgilangan topshiriqlar ijrosi uchun talab etiladigan sarf-xarajatlar belgilangan muddatlarda alohida buyruq asosida amalga oshirilishi belgilansin.
3. Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti (A.Jalilov) uch kun muddatda ish rejaga muvofiq 2022-yil ikkinchi yarim yillik uchun ish rejasini ishlab chiqsin va ijrosi yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatsin.
4. Agentlik markaziy apparati boshqarma va bo'lim boshliqlari, hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti (A.Jalilov) har oyning 25-sanasiga qadar ish reja ijrosi bo'yicha Axborot-tahlil va ijro nazorati boshqarmasiga hisobot taqdim etib borsin.
5. Axborot-tahlil va ijro nazorati boshqarmasi (S.Abdunazarov) Agentlik direktoriga ish reja ijrosi yuzasidan tahliliy axborot hamda ish rejada belgilangan topshiriqlar ijrosini lozim darajada bajarmagan tegishli mas'ullarga intizomiy chora ko'rish bo'yicha taklif kiritib borsin.

6. Ish rejada belgilangan vazifa va tadbirlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik mas'ul ijrochi bo'lgan tarkibiy va hududiy bo'linmalar rahbarlari zimmasiga yuklansin.

7. Ish reja ijrosini belgilangan muddatlarda, sifatli va lozim darajada to'liq bajarmagan tegishli mas'ullarga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan qat'iy choralar ko'rilishi belgilansin.

8. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Direktor**



**A. Sa'dullayev**

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil ikkinchi yarim yillik  
ISH REJASI**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar	Nazorat uchun mas'ullar
<b>I. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining ustuvor vazifalari</b>					
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son Farmonida yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.	Belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	Belgilangan muddatlarda	Agentlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti	Direktorning birinchi o'rinbosari, direktor o'rinbosarlari
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarorida yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.	Belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	Belgilangan muddatlarda	Agentlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti	Direktorning birinchi o'rinbosari, direktor o'rinbosarlari
3.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi 550-son qarori bilan	Belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	Doimiy	Agentlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari,	Direktorning birinchi o'rinbosari, direktor o'rinbosarlari

	tasdiqlangan <b>O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi to‘g‘risida nizom</b> talablarini bajarish.			Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti	
4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida <b>30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda berilgan topshiriqlarning 54-sonli bayonida (07.07.2022-y. 02-PA 1-11011)</b> yuklatilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash.	Belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash.	Doimiy	Agentlik markaziy apparati boshqarma va bo‘limlari, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti	Direktorning birinchi o‘rinbosari, direktor o‘rinbosarlari
5.	<b>Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarda</b> belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash.	Belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash.	Doimiy	Agentlik markaziy apparati boshqarma va bo‘limlari, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti	Direktorning birinchi o‘rinbosari, direktor o‘rinbosarlari
6.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan <b>videoselektor yig‘ilishlarida</b> hamda <b>hududlarga tashriflarida</b> yuklatilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash.	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligiga yuklatilgan vazifalar bo‘yicha “Nazorat reja” ishlab chiqish hamda ijrosini ta‘minlash.	Reja asosida	Axborot-tahlil va ijro nazorati boshqarmasi, Agentlik markaziy apparati boshqarma va bo‘limlari, Agentlikning hududiy	Direktorning birinchi o‘rinbosari, direktor o‘rinbosarlari

				boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti	
7.	<b>Hukumat bayonlarida</b> yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.	Belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	Belgilangan muddatlarda	Agentlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti	Direktorning birinchi o'rinbosari, direktor o'rinbosarlari
8.	Gazeta va jurnallarda yoshlarga bag'ishlangan maqolalar, televideniya hamda boshqa OAVda turkum ko'rsatuvlar tayyorlab borish.	Ko'rsatuv va maqolalar berib borilishini tashkil qilish.	Doimiy	Axborot va media xizmati	Direktorning birinchi o'rinbosari, direktor o'rinbosarlari
<b>II. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida yoshlar siyosatini muvofiqlashtirish, mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash, besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish yo'nalishi</b>					
9.	Qashqadaryo viloyatidagi 813 ta mahallada yoshlar yetakchilari tomonidan "Yoshlar dasturlari"ni amalga oshirish, bu orqali "Yoshlar balansi"ga kiritilgan 683 ming nafar yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 8 089 nafar yoshlar muammolarini manzilli hal etish, ularning intilishlarini ijtimoiy-moddiy	1. Viloyatdagi 813 ta mahallada yoshlar yetakchilari tomonidan "Yoshlar dasturlari"ni samarali amalga oshirish. 2. "Yoshlar balansi"ga kiritilgan 683 ming nafar yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish. 3. "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 8 089 nafar yoshlar	2022-yil 28-oktabr	Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarida yoshlar siyosatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish boshqarmasi, Agentlikning	Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjayev

	<p>qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qashqadaryo viloyatiga tashrifi, 25-fevral kuni o'tkazilgan 35-sonli yig'ilish bayoni (28.04.2022-y. 02-PA 1-6569) 142-band</i></p>	<p>muammolarini manzilli hal etish ijtimoiy-moddiy qo'llab-quvvatlash.</p>		<p>Qashqadaryo viloyati boshqarmasi</p>	
10.	<p>Yoshlarning ilg'or g'oya, taklif va tashabbuslari bilan yaqindan tanishish va ularning muammolarini hal qilish maqsadida <b>yoshlar bilan uchrashuvlar</b> tashkil etish.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-iyuldagi PF-6260-son Farmoni 2-ilovasi 35-band</i></p>	<p>Amaliy chora-tadbirlar</p>	<p>2022-yil davomida</p>	<p>Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarida yoshlar siyosatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari</p>	<p>Direktorning birinchi o'rinbosari, direktor o'rinbosarlari</p>
11.	<p>"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning muammolarini bartaraf etishga qaratilgan "Yoshlar dasturi"ning ijrosini har chorakda kamida bir marta Xalq deputatlari tuman (shahar) kengashida muhokama qilib borilishini tashkil qilish.</p> <p><i>Asos: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son qarori</i></p>	<p>Kengash sessiyalariga muammolarni bartaraf etishga qaratilgan hisobotlar kiritib borish.</p>	<p>Har chorakda</p>	<p>Davlat va xo'jalik boshqaruv organlarida yoshlar siyosatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjayev</p>
12.	<p>Yoshlar bilan ishlashning samarali boshqaruv tizimini joriy etish.</p> <p><i>Asos: PF-60-son, 2022-yil Davlat dasturi 256-band</i></p>	<p>1. Yoshlar bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish va sohada yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish. 2. Mahallalarda yoshlar</p>	<p>2022-yil davomida</p>	<p>Mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman</p>	<p>Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjayev</p>

		bilan olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish.		(shahar) bo'limlari	
13.	<p>Mahallalarda <b>madaniyat va san'atni targ'ib qilish borasida</b> "San'at g'unchalari" ko'rik tanlovi, maqom, baxshichilik va estrada bo'yicha "Yoshlar ovozi", "Yosh musavvirlar" tanlovlari hamda "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyot festivalini o'tkazadi, shuningdek, yoshlar va bolalar teatr jamoalarini tashkil etish</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori 3-band</i></p>	<p>Mahallada yoshlar yetakchi tomonidan ushbu yo'nalishda chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash.</p>	2022-yil davomida	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjeyev</p>
14.	<p>Mahallalarda <b>sog'lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish borasida</b> mini-futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, velosport, yugurish, shaxmat, shashka, badminton, kamondan otish bo'yicha musobaqalarni tashkil etish, salomatlik uchun 5 000 qadam yurish marafoni hamda "Yosh ekolog" aksiyasini o'tkazish.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori 3-band</i></p>	<p>Mahallada yoshlar yetakchi tomonidan ushbu yo'nalishda chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash.</p>	2022-yil davomida	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjeyev</p>

15.	<p>Sport musobaqalarining respublika final bosqichlari bo'lib o'tadigan hududlar va u yerda joylashgan infratuzilma obyektlarini talab darajasida tayyorlash.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi PQ-201-son qarori 1-ilova, 2-band</i></p>	<p>1. Ommaviy sport musobaqalari o'tish joyini aniqlash.</p> <p>2. Musobaqalarni yuqori saviyada o'tkazish choralari ko'rish.</p>	2022-yil iyul-dekabr	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari</p>	Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjayev
16.	<p>Sport turlari bo'yicha tuman (shahar) larning terma va sektor jamoalarini shakllantirish va sport ta'lim muassasalariga yashirin iqtidor egalarini saralab olish bo'yicha tizim yaratish.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi PQ-201-son qarori 1-ilova, 9-band</i></p>	<p>1. Sport musobaqalarida iqtidorli yoshlarni saralash tizimini yaratish.</p> <p>2. Ommaviy sport musobaqalaridan tanlab olingan yoshlarni bolalar va o'smirlar sport maktablaridagi seksiyalarga jalb qilish.</p>	2022-2023 o'quv yilidan boshlab	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari</p>	Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjayev
17.	<p>Sport musobaqalarini namunalik tashkil etgan yoshlar yetakchilari va boshqa mas'ullar uchun o'quv seminarlari tashkil etish va maxsus sertifikat berish tizimini yo'lga qo'yish.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi PQ-201-son qarori 1-ilova, 15-band</i></p>	<p>1. Ommaviy tadbirlarni tashkil etishga qaratilgan o'quv seminari va leksiya metodikasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Onlayn o'quv seminarlarini tashkil etish.</p> <p>3. Maxsus sertifikat berish tizimini yo'lga qo'yish.</p>	2022-2023 o'quv yilidan boshlab	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari</p>	Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjayev
18.	<p>Mahallalarda <b>axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish borasida</b> "Bir million dasturchi"</p>	<p>Mahallada yoshlar yetakchi tomonidan ushbu yo'nalishda chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash.</p>	2022-yil davomida	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi,</p>	Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjayev



	<p>loyihasi, kibersport chempionati, “Axborot texnologiyalari bilimdoni” tanlovi, “Dasturlashga birinchi qadam” loyihalarini amalga oshirish</p> <p><i>Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ–92-son qarori 3-band</i></p>			Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari	
19.	<p>Mahallalarda <b>ma’naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish borasida</b> “Zakovat” musobaqasi, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Zukko kitobxon”, “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila”, “Xorijiy tillar bilimdoni” va “Yosh poliglot” tanlovlari hamda “Munozara” intellektual va milliy xalq o‘yinlarini tashkil etish</p> <p><i>Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ–92-son qarori 3-band</i></p>	<p>Mahallada yoshlar yetakchi tomonidan ushbu yo‘nalishda chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlash.</p>	2022-yil davomida	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Ta’lim muassasalaridagi yoshlar bilan ishlash va volontyorlikni rivojlantirish boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari J.Xodjayev, Direktor o‘rinbosari D.Kattaxanova</p>
20.	<p>“<b>Kamalak yulduzlari</b>” bolalar ijodiyot festivalini tashkil etish.</p> <p><i>Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ–92-son qarori 3-band</i></p>	<p>1. Hamkorlikda festival dasturini ishlab chiqish. 2. Festivalni yuqori saviyada tashkil qilish.</p>	2022-yil 31-iyul	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari J.Xodjayev</p>

21.	<p>Farg‘ona viloyatida yoshlar o‘rtasida ichki turizmni yanada rivojlantirish, ijodkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda diqqatga sazovor turistik manzillarni ommalashtirish maqsadida joriy yilda <b>“Betakror O‘zbekiston”</b> brendi ostida an’anaviy <b>“Respublika yosh fotograflar”</b> tanlovini tashkil etish choralarini ko‘rish.</p> <p><i>Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg‘ona viloyatiga tashrifi, 43-sonli yig‘ilish bayoni (19.05.2022-y. 02-PA 1-7720) 117-band</i></p>	<p>1. Hamkorlikda “Betakror O‘zbekiston” brendi ostida an’anaviy “Respublika yosh fotograflar” tanlovi Nizomi va Dasturini ishlab chiqish.</p> <p>2. “Respublika yosh fotograflar” tanlovini yuqori saviyada tashkil etish choralarini ko‘rish.</p>	<p>2022-yil 20-iyul,</p> <p>Yil yakuniga qadar</p>	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Agentlikning Farg‘ona viloyati boshqarmasi</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari J.Xodjayev</p>
22.	<p>Joriy yilda qoraqalpoq yoshlarining sport bilan muntazam shug‘ullanishi, kitob o‘qishiga sharoit yaratish maqsadida, mahallalarda 20 ta Yoshlar komplekslarini barpo etish va foydalanishga topshirish choralarini ko‘rish.</p> <p><i>Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi, 25-fevral kuni o‘tkazilgan 16-sonli yig‘ilish bayoni (07.03.2022-y. 02-PA 1-3163) 127-band</i></p>	<p>1. Ishlab chiqilgan Yoshlar komplekslari loyihasini qayta ko‘rib chiqish hamda barpo etish uchun moliyaviy manbaalarni aniqlash.</p> <p>4. Komplekslarni barpo etish va foydalanishga topshirish.</p>	<p>2022-yil 1-avgust,</p> <p>2022-yil 1-dekabr</p>	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Ishlar boshqarmasi, Moliya-iqtisod boshqarmasi</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari J.Xodjayev</p>

23.	<p>Yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va huquqiy savodxonligini oshirish, shuningdek, besh muhim tashabbus doirasidagi mahalla, sektor, tuman (shahar) va hududiy tadbirlarni moliyalashtirish uchun yil yoki yarim yilga mo'ljallangan <b>kalendar rejaning</b> "Yoshlar daftari" elektron platformasi orqali shakllantirilishi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tasdiqlanishini yo'lga qo'yish.</p> <p><i>Asos: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son qarori</i></p>	<p>"Yoshlar daftari" elektron platformasini takomillashtirish.</p>	<p>2022-yil 20-iyul</p>	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish boshqarmasi, Innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjayev</p>
24.	<p>Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning iste'dodini ro'yobga chiqarish maqsadida <b>Besh tashabbus olimpiadasini</b> yilda ikki marotaba – birinchi mavsumni <b>mart-iyun oylarida</b>, ikkinchi mavsumni <b>sentabr-dekabr oylarida</b> o'tkazish.</p> <p>Olimpiadaning birinchi mavsum g'oliblarini har yili <b>30 iyun – Yoshlar kuni</b> bayram tadbirida hamda ikkinchi mavsum g'oliblarini <b>dekabr oyida respublika yoshlar forumida</b> taqdirlab borish.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi</i></p>	<p>1. Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi bayoni loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Har yili mart-iyun oylarida va sentabr-dekabr oylarida Besh tashabbus olimpiadasini o'tkazib borish.</p>	<p>2022-yil 20-iyulga qadar,</p> <p>Doimiy</p>	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Agentlikning hududiy bo'linmalari</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjayev</p>

	<i>Prezidenti bilan 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv, 54-sonli yig‘ilish bayoni (07.07.2022-y. 02-PA 1-11011) 9-band</i>				
25.	<p>Internet tarmog‘ida <b>O‘zbek milliy kontentini rivojlantirish dasturini</b> amalga oshirishga qaratilgan <b>normativ-huquqiy hujjat loyihasini</b> Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>Bunda:  davlatchiligimiz <b>tarixini</b> matnli va video kontentlar orqali targ‘ib qilish, <b>buyuk alloma va mutafakkirlar haqida</b> internetda ma‘lumotlar bazasini yaratish, ularning asarlarini ommalashtirish;</p> <p>Vikipediyada o‘zbek tilidagi maqolalar sonini qo‘shimcha <b>100 mingtaga oshirish</b>, xorijiy tillarda O‘zbekiston haqidagi ma‘lumotlarni joylashtirish;</p> <p>dasturni amalga oshirish tadbirlariga bilimli va shijoatli <b>volontyor yoshlarni jalb qilish</b> hamda ularning faoliyatini <b>rag‘batlantirib borish.</b></p> <p>Moliya vazirligi (Ishmetov) ushbu maqsadlar uchun davlat byudjetidan <b>10 milliard so‘m</b> mablag‘</p>	<p>1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha vazirlik va idoralar mas‘ul xodimlaridan iborat ishchi guruh tuzish.</p> <p>2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2022-yil 20-iyul,</p> <p>2022-yil 1-avgust,</p> <p>2022-yil 20-sentabr</p>	<p>Davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchi, Yoshlar ishlari agentligining Ekspert-tahlil guruhi</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari J.Xodjayev</p>

	ajratilishini ta'minlash.  <i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan uchrashuv, 54-sonli yig'ilish bayoni (07.07.2022-y. 02-PA 1-11011) 11-band</i>				
26.	<p>Yoshlar ishlari agentligi (Sa'dullayev) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (Toshkulov) bilan birgalikda <b>2022/2023 o'quv yilidan boshlab har yili</b> oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limiga o'qishga qabul qilingan <b>500 nafargacha</b> eng faol mahalladagi yoshlar yetakchilarining <b>kontrakt to'lovlarini</b> Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lab berish.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan uchrashuv, 54-sonli yig'ilish bayoni (07.07.2022-y. 02-PA 1-11011) 20-band</i></p>	<p>1. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab har yili oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limiga o'qishga qabul qilingan 500 nafargacha eng faol mahalladagi yoshlar yetakchilarining kontrakt to'lovlarini Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lab borish tartibini ishlab chiqib tasdiqlash.</p> <p>2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 400-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 6-bandiga tegishli qo'shimcha kiritish to'g'risida Hukumat qarori loyihasini tayyorlash va belgilangan tartibda kiritish.</p> <p>3. 2022/2023 o'quv yilidan boshlab har yili oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limiga o'qishga qabul</p>	<p>2022-yil 1-avgust,</p> <p>2022-yil 20-avgust,</p> <p>2022/2023 o'quv yilidan boshlab doimiy</p>	<p>Mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash boshqarmasi, Agentlikning hududiy bo'linmalari</p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o'rinbosari J.Xodjayev</p>

		qilingan 500 nafargacha eng faol mahalladagi yoshlar yetakchilarining kontrakt to'lovlarini Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lab borish.			
27.	<p>“Bo‘zatov yoshlar ovozi” tanlovi g‘oliblarini tajriba almashishi uchun <b>xorijiy mamlakatlarga</b> yuborilishini ta‘minlash;</p> <p>“Bo‘zatov yoshlar ovozi” tanlovi g‘oliblarining iste‘dodini doimiy ravishda namoyish qilib borish, yosh iqtidorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijod qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida “Mening yurtim” telekanali huzurida <b>“Yoshlar ovozi” prodyuserlik markazini</b> tashkil qilish. Bunda, har bir tuman (shahar)da yosh san'atkorlarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tuman (shahar)larida salohiyatli faol yoshlarni qo‘shimcha rag‘batlashtirish namunasini yaratish.</p> <p>Moliya vazirligi (Ishmetov) ushbu maqsadlar uchun 2022-yilda <b>10 milliard so‘m</b> ajratsin, 2023-yildan boshlab esa Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutilishini</p>	<p>1. Vazirlik va idoralar mas‘ul xodimlaridan iborat ishchi guruh tuzish.</p> <p>2. “Bo‘zatov yoshlar ovozi” tanlovi g‘oliblarini tajriba almashishi uchun xorijiy mamlakatlarga yuborish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish va g‘oliblarni xorijiy mamlakatlarga yuborish.</p> <p>3. “Mening yurtim” telekanali huzurida “Yoshlar ovozi” prodyuserlik markazini tashkil qilish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish.</p>	<p>2022-yil 20-iyul,</p> <p>2022-yil davomida,</p> <p>2022-yil avgust</p>	<p>Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi <b>(I.Xoldarova)</b>, Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo‘limi <b>(I.Oxunov)</b>, Axborot va media xizmati <b>(N.Abduqodirov)</b></p>	<p>Agentlik direktorining birinchi o‘rinbosari J.Xodjayev</p>

	<p>ta'minlash.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan uchrashuv, 54-sonli yig'ilish bayoni (07.07.2022-y. 02-PA 1-11011) 28-band</i></p>				
28.	<p>“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan mamlakat yoshlariga yo'llagan bayram tabrigida belgilangan ustuvor vazifalarni samarali bajarilishi bo'yicha Yoshlar ishlari agentligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlari tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi to'g'risida” Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisida hisobot berish.</p> <p><i>Asos: Vazirlar Mahkamasining Rayosat majlisi bayoni (11.07.2022 y., 103-son), 1-ilova, 40-band</i></p>	<p>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan uchrashuvning 54-sonli yig'ilish bayonida belgilangan vazifalar ijrosini tahlil qilish.</p> <p>2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisida hisobot berish.</p>	<p>2022-yil 15-noyabr,</p> <p>2022-yil 28-noyabr</p>	<p>Agentlik markaziy apparati boshqarma va bo'limlari, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti</p>	<p>Direktorning birinchi o'rinbosari, direktor o'rinbosarlari</p>

<b>III. Yoshlarning bandligi va tadbirkorligiga ko‘maklashish, innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish yo‘nalishi</b>					
29.	<p>Mahallalarda “<b>Yoshlar balansi</b>”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni “<b>Yoshlar daftari</b>” va “<b>Yoshlar portali</b>” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish.</p> <p><i>Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori, 2-band</i></p>	<p>Mahallada yoshlar yetakchi tomonidan ushbu yo‘nalishda chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlash.</p>	2022-yil davomida	<p>Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko‘maklashish boshqarmasi, Innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari</p>	Agentlik direktorining o‘rinbosari F.Ablayarov
30.	<p>“Yoshlar daftari”ga kiritilshgan yoshlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, ularga berilgan imtiyozlarni manzilli qo‘llash chora-tadbirlarni ta’minlashda Yoshlar ishlari agentligi, Navoiy viloyati hokimligi rahbarlari tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisida hisobot berish.</p> <p><i>Asos: Vazirlar Mahkamasining Rayosat majlisi bayoni (11.07.2022 y., 103-son), 1-ilova, 20-band</i></p>	<p>1. “Yoshlar daftari”ga kiritilshgan yoshlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, ularga berilgan imtiyozlarni manzilli qo‘llash holatini tahlil qilish.</p> <p>2. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligi to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisida hisobot berish.</p>	<p>2022-yil 20-sentabr,</p> <p>2022-yil 3-oktabr</p>	<p>Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko‘maklashish boshqarmasi, Axborot-tahlil va ijro nazorati boshqarmasi, Agentlikning Navoiy viloyati boshqarmasi</p>	Agentlik direktorining o‘rinbosari F.Ablayarov



31.	<p>“Yoshlar daftari”ga doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bo‘yicha o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan (o‘ttiz bir yoshga to‘lmagan) yoshlarni o‘rnatilgan tartibda kiritsin va ularga amaliy yordam ko‘rsatish.</p> <p>Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq <b>yoshlar yetakchisining ijobiy tavsiyasi asosida</b> “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan:</p> <p>yoshlarga zamonaviy kasblarni egallashi, axborot texnologiyalarini o‘rganishi va ularni xorijiy tillarga o‘qitish bo‘yicha olti oygacha muddatli o‘quv kurslari uchun har oyda bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 4 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratiladi;</p> <p>yoshlarning ilm-fan, sport, san‘at va madaniyat yo‘nalishlaridagi olti oygacha muddatli o‘quv kurslari uchun har oyda BHMning bir baravarigacha miqdorda subsidiya ajratiladi;</p> <p>yoshlarning ilm-fan, sport, san‘at va madaniyat yo‘nalishlaridagi olimpiada, tanlov va musobaqalarning mahalliy bosqichlarida qatnashishi (ishtirokchilarning yashash va transport xarajatlarini qoplash)</p>	<p>1. Mahalladagi yoshlar yetakchilarining “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga yordam turlarini ajratish bo‘yicha tavsiya berish tizimini to‘liq raqamlashtirish.</p> <p>2. “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini tayyorlash va belgilangan tartibda kiritish.</p> <p><i>(Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 250-son, 2022-yil 13-martdagi 145-son va 2022-yil 7-iyundagi 312-son qarorlariga).</i></p> <p>(Asos: 54-son bayonning 2-bandida “Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yosh oilalarning o‘quvchi farzandlari uchun bir kalendar yilida bir marotaba maktab formasi hamda o‘quv qurollari xarajatlari qoplab beriladi, deb belgilangan).</p> <p>3. Topshiriqda belgilangan yordam turlarini ajratib borish.</p>	<p>2022-yil 1-avgustga qadar,</p> <p>2022-yil 10-avgustga qadar,</p> <p>Doimiy</p>	<p>Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko‘maklashish boshqarmasi, Innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi, Mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash boshqarmasi</p>	<p>Agentlik direktorining o‘rinbosari F.Ablayarov</p>
-----	--	---	--	--	---

	<p>uchun BHMning 4 baravarigacha hamda ushbu olimpiada, tanlov va musobaqalarning xalqaro bosqichlarida qatnashishi (ishtirokchilarning yashash va transport xarajatlari) uchun BHMning 40 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratiladi;</p> <p>“Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yosh oilalarning o‘quvchi farzandlari uchun bir kalendar yilida bir marotaba maktab formasi hamda o‘quv qurollari xarajatlari qoplab beriladi;</p> <p>“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa yordam turlari ko‘rsatiladi.</p> <p><i>Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuv, 54-sonli yig‘ilish bayoni (07.07.2022-y. 02-PA 1-11011) 2-band</i></p>				
32.	<p><b>2022-yil dekabrga qadar</b> mahallalarda yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, yoshlar yetakchisi faoliyatini raqamlashtirish, interaktiv xizmatlarni rivojlantirish ishlarini</p>	<p>Qaror loyihasini vazirliklar bilan qayta ishlash va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2022-yil 1-avgust</p>	<p>Innovatsion va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligining</p>	<p>Agentlik direktorining o‘rinbosari F.Ablayarov</p>

	<p>yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan <b>Raqamlashtirilgan situatsion-tahliliy markazini</b> tashkil etish bo'yicha <b>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini</b> kiritish.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan uchrashuv, 54-sonli yig'ilish bayoni (07.07.2022-y. 02-PA 1-11011) 25-band</i></p>			Ekspert tahlil guruhi	
33.	<p><b>Axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, adabiyot, ta'lim va boshqa yo'nalishlarda</b> o'z sohasining ilg'or yoshlarini qo'llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot qilish va moddiy rag'batlantirish, ushbu yoshlarning eng yaxshi loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan tanlov asosida <b>kichik grantlar</b> ajratish.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan bo'lib o'tgan uchrashuv, 54-sonli yig'ilish bayoni</i></p>	<p>1. Jamg'arma hisobidan tanlov asosida kichik grantlar ajratish tartibini ishlab chiqish hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-iyundagi 400-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga qo'shimcha kiritish, Hukumat qarori loyihasini tayyorlash va belgilangan tartibda kiritish.</p> <p>2. Kichik grantlar ajratib borish.</p>	2022-yil sentabr,  Doimiy	Innovatsion va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi, Besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash va volontyorlik faoliyatini rivojlantirish boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligining Ekspert-tahlil guruhi	Agentlik direktorining o'rinbosari F.Ablayarov

	(07.07.2022-y. 02-PA 1-11011) 35-band				
34.	<p><b>“Onlayn mahalla”</b> elektron platformasining “Yoshlar daftari” axborot tizimi bilan, “Yoshlar daftari” axborot tizimini tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan <b>integratsiya qilinishini ta’minlash.</b></p> <p><i>Asos: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son qarori, 7-band</i></p>	<p>1. Ishchi guruhini shakllanitirish.</p> <p>2. “Onlayn mahalla” elektron platformasining “Yoshlar daftari” axborot tizimi bilan integratsiya qilish.</p> <p>3. “Yoshlar daftari” axborot tizimini tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish.</p>	<p>2022-yil 20-iyul,</p> <p>1-avgust,</p> <p>1-sentabr</p>	<p>Innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi, Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko‘maklashish boshqarmasi, Davlat va xo‘jalik boshqaruv organlarida yoshlar siyosatini muvofiqlashtirish boshqarmasi</p>	<p>Agentlik direktorining o‘rinbosari F.Ablayarov</p>
35.	<p>Farg‘ona viloyatida 5,8 ming nafardan kam bo‘lmagan ishsiz yoshlarni tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;</p> <p>tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha kurslarni muvaffaqiyatli tamomlab, sertifikat olgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun o‘rnatilgan tartib bo‘yicha imtiyozli kreditlar ajratilishini ta’minlash.</p> <p><i>Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg‘ona viloyatiga tashrifi, 43-sonli yig‘ilish bayoni (19.05.2022-y. 02-PA 1-7720) 68-band</i></p>	<p>1. Hamkor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ishsiz yoshlarni tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Farg‘ona viloyatida 5,8 ming nafardan kam bo‘lmagan ishsiz yoshlarni tadbirkorlikka o‘qitish choralari ko‘rish.</p> <p>3. O‘rnatilgan tartib bo‘yicha imtiyozli kreditlar ajratilish loyihasini amalga oshirish.</p>	<p>2022-yil 20-iyul,</p> <p>2022-yil 30-dekabr,</p> <p>Doimiy</p>	<p>Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko‘maklashish boshqarmasi, Agentlikning Farg‘ona viloyati boshqarmasi</p>	<p>Agentlik direktorining o‘rinbosari F.Ablayarov</p>

36.	<p>Mahallalarda <b>tadbirkorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash borasida</b> "O'zbekiston uchun 100 g'oya" va "Mahallaning ishbilarmon tadbirkori" tanlovlari, "biznesga birinchi qadam" grant loyihasi hamda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlarni tashkil etish.</p> <p><i>Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori 3-band</i></p>	<p>Mahallada yoshlar yetakchi tomonidan ushbu yo'nalishda chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash.</p>	2022-yil davomida	<p>Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish boshqarmasi, Innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi, Agentlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari</p>	Agentlik direktorining o'rinbosari F.Ablayarov
